

MEXANIK SARIQLIKNI KOMPLEKS DAVOLASHDA ENDOBILIAR  
XIRURGIYANING AHAMIYATI.

Asadov T.Sh

Daminov F.A

L.M. Xayitov

Sh.N.Abrorov

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti*

Dolzarbligi. Bugungi kunda qorin bo'shlig'i jarrohligida mexanik sariqlik (MS) bilan og'rigan bemorlarni boshqarish murakkab muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi. E.I. Galperinning va hammualliflar so'zlariga ko'ra dunyo aholisining 10% gacha ushbu patologiyadan aziyat chekadi, shu bilan birga kasallik darajasi har 10 yilda taxminan 2 martaga oshadi. Hozirgi vaqtda mexanik sariqlik bilan og'rigan bemorlarni davolashning yangi usullarini izlashning dolzarbligi o't tosh kasalligi (O'TK), bilio pankreatoduodenal zona (BPO') o'smalarining progressiv o'sishi, shuningdek davolashning an'anaviy usullardan keyin ko'plab asoratlar bilan bog'liq.

Mexanik sariqlik bilan og'rigan bemorlarda klinik ko'rinishlarning og'irligi turli organlar va tizimlarning, xususan, jigar va buyraklarning nomutanosibligi bilan bog'liq. Ushbu nomutanosiblikning ahamiyati shunchalik kattaki, u kasallikning rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'lib, operatsiyadan keyingi asoratlar va o'limning sababi hisoblanadi. Yiringli xolangitning mavjudligi ushbu toifadagi bemorlarning prognozini sezilarli darajada yomonlashtiradi. O't yo'llarining obstruksiyasi, xolangit va jigar etishmovchiligi bo'lsa, jarrohlik davolash juda xavfli va yuqori o'lim bilan birga keladi. Mexanik sariqlik bilan og'rigan bemorlarda o'limning asosiy sababi jarrohlikdan keyin jigar etishmovchiligining rivojlanishidir.

Maqsad. Gepatobiliar sohadagi patologiyalar va ularni asoratlariga bog'liq holda kelib chiqadigan mexanik sariqlik bilan og'rigan bemorlarni davolash samaradorligini oshirish va kaminvaziv usullar afzalligini baholash.

Materiallar va usullar. Mexanik sariqlik bilan og'rigan 2022-2023 yilgacha Gamma med klinikasida davolangan 35 nafar bemorni kaminvaziv yo'li bilan davolash natijalarini aks ettiradi. Bemorlarning o'rtacha yoshi 55,6 (22 yoshdan 93 yoshgacha). Ularning 10 nafari erkak va 25 nafari ayollardir. Barcha bemorlar standart tekshiruvlardan to'liq o'tkazilgan. Nazoratdagi bemorlarda mexanik sariqlikning sabablari har xil edi. Ko'p hollarda 23 (67,1%) bemorlarda – MS sababi O'TK va uni davolash oqibatlari edi. Tekshiruv natijasida 11 (32,9%) bemorda o'sma jarayoni aniqlandi, shu jumladan xolangiokarsinoma (Klatskin o'smasi) va jigar darvoza sohasidagi metastazlar - 1 (17,6%) bemorlarda, oshqozon osti bezi boshi saratoni edi. Jarrohlik davolash boshlanganda keyingi davrning davomiyligi 7 kundan 40 kungacha (o'rtacha  $23,5 \pm 3,4$  kun). Bilirubinemiya darajasi 89,3 dan 557,4 mkmol / L gacha (o'rtacha  $323,4 \pm 25,6$  mkmol / L) bo'lgan. Tahlilga kiritilgan sariqlikning barcha holatlari safro yo'llarida mexanik to'siqning xar xil sabablari (proksimal yoki distal)

farqlanadi. Kasallikning klinik ko'rinishlari, diagnostika va davolash taktikasidagi farqlar, safro chiqishi va bemorni sog'ayishi uchun muxim o'rin kasb etadi.

Natijalar. Bemorlarni qabul qilish va davolanishni boshlash vaqtida engil jigar etishmovchiligi 3 (8%) holatda, o'rtacha - 14 (41%) holatda, og'ir - 18 (51%) holatda qayd etilgan.

Bemorlarda bajariladigan jarrohlik operatsiyalari aralashuvidan so'ng 6 (17%) odatda turli xil asoratlarni paydo bo'ldi, o'lim darajasi 8% ni tashkil etdi, bu birinchi navbatda jigar etishmovchiligining og'irligi bilan bog'liq edi, teri orqali transgepatik xolangiostomiya (CHCHXS) paytida, 2 (6,8%) engil darajadagi jigar etishmovchiligi, o'rtacha - 13 (38,9%), og'ir - 20 (54,3%) kabi natijalarga erishildi.

Xulosa. Retrograd va antegrad texnikasi tufayli mexanik sariqlik bilan og'irgan bemorlarni kompleks davolash natijalari sezilarli darajada yaxshilanadi. O't yo'llarining antegrad dekompressiyasi sariqlikni, tananing intoksikatsiyasini bartaraf etishga yordam beradi va jigar-buyrak etishmovchiligi kabi asoratlarning kamayishiga olib keladi, shuningdek jigar faoliyatini yaxshilaydi va palliativ va radikal jarrohlik aralashuvlar uchun sharoit yaratadi.